

1. Amaliy mashg'uloti

Mavzu: ASEPTIKA VA ANTISEPTIKA QONUN-QOIDALARI BILAN TANISHISH. BIOLOGIK MIKROSKOPNING TUZILISHI.

Mashg'ulot maqsadi: Mikrobiologiya laboratoriyasida ishlash qoidalarini, va ularga amal qilishni o'rgatish. Mikroskop tuzilishini va mikroskopda ishlash qoidalarini o'rgatish.

Kerakli o'quv materiallari: Mikrobiologik laboratoriya bloki sxemasi, laboratoriya stoli jihozlari: mikroskop (biologik immersion mikroskop) buyum va qoplag'ich oyna, turli xil bo'yoqlar, tomizgich va bakteriologik ilmoqlar, preparatlar va boshqa asboblari.

Jarayon:

Tirik mikroorganizmlar populatsiyasiga kultura deyiladi. Laboratoriyada kulturalar turli shaklda bo'ladi; suyuq muhitlarda, agarli "kosyak"larda, Petri likopchalaridagi qattiq muhitlarda. Mikroorganizmlar kulturasi faqat bir turdan iborat bo'lsa, u sof kultura deyiladi. Mikrobiologlar deyarli hamma vaqt sof kulturalar bilan ish tutadilar. Agar kultura bittadan ortiq mikroorganizmlar turini tutsa, u kultura aralash yoki iflos deyiladi. Shuning uchun sof kulturalarni tozaligini saqlash mikrobiologlarning asosiy vazifalaridandir, chunki aks holda tadqiqotlarda olingan natijalar to'g'ri bo'lmaydi. Mikroorganizmlar keng tarqalganligi tufayli ularni sof kulturalarga tushmasligini ta'minlash uchun choralar ko'rish muhim, ya'ni aseptika texnikasiga amal qilish lozim. Demak, aseptika texnikasiga kora, mikroorganizmlar sterillangan oziqa muhitida o' stiriladi va bu muhitni atrofda mikroorganizmlar tushmasligidan saqlash kerak. Sof kultura oziqa muhitga ekilganda qo'yidagi aseptika texnikasi qoidalariga amal qilinadi

1. sof kulturaga tegishi mumkin bo'lgan barcha narsalar oldindan sterillanadi;
2. oziqli muhit sterillanadi;
3. ekish va qayta ekish vaqtlarida kultura ifloslanishidan saqlanishi uchun ehtiyot qilinadi; Buning uchun quyidagi choralar amalga oshiriladi:
4. barcha idish va oziqli muhitlar tayyor bo'lishi bilan darhol sterillanadi;
5. havodagi mikroblar tushmasligi uchun oziqli muhitlar yopiq idishlarda saqlanadi. Bunda paxta va dokadan tayyorlangan tiqinlardan foydalaniladi, va ular faqat ekish vaqtida olib turiladi, lekin hech qachon stol yoki boshqa vositalarga qo'yilmaydi.
6. sterillangan idishlarni ichki va ulardagi steril oziqli muhitlarga hamda sof kulturalarga tegishi mumkin bo'lgan barcha vositalar avvaldan sterillanadi, masalan, bakteriologik ilmoq;
7. ekish va qayta ekish vaqtida ishlatiladigan probirka va kolbalarni og'zi ishdan oldin flambirlanadi va iloji boricha kam vaqt davomida ochiq holda qoldiriladi.
8. Ish joyini mikroorganizmlar bilan ifloslanishdan saqlash lozim, ilmoqlar ishlatilgandan so'ng ham sterillanadi, pipetkalar esa dezinfeksion suyuqliklarga solinib qo'yiladi

